

**“YURAK BILAN KO’RISH:AQLI ZAIF BOLALARNING ICHKI
DUNYOSIGA SAYOHAT”****Xujamova Asal Qudrat qizi**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Special pedagogy fakulteti talabasi

Xujamovaasal9@gmail.com

+998970103479

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning ta’lim-tarbiyasi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatdagi o’rni yoritilgan. Aqliy imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan to’g’ri pedagogik yondashuv, mehr-oqibat, individual yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Aqliy imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari, qaysi ish o’rinlari bilan ta’minlanishi, va ularning statistik ma’lumotlari keltirib o’tilgan.

Kalit so’z: Aqli zaif bolalar, G’amxo’rlik guruhi, Maxsus ta’lim, Inklyuziv ta’lim, bolalar huquqi.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития детей с умственной отсталостью, их образование, социальная адаптация и роль в обществе. Анализируется важность правильного педагогического подхода, сострадания и индивидуального подхода к детям с умственной отсталостью. Представлены права детей с умственной отсталостью, возможности трудоустройства и статистические данные.

Ключевые слова: Дети с психическими отклонениями, Группа опеки, Специальное образование, Инклюзивное образование, права детей.

Abstract: This article discusses the developmental characteristics of children with mental disabilities, their education, social adaptation, and their role in society. The importance of a correct pedagogical approach, compassion, and an individual approach to children with mental disabilities is analyzed. The rights of children with mental disabilities, the types of jobs they are provided with, and their statistical data are presented.

Keywords: Mentally disabled children, Care group, Special education, Inclusive education, children's rights.

Qadimgi jamiyatlarda aqli zaif insonlarga nisbatan turlicha munosabat bo’lgan. Masalan: Aqli zaiflar deb hisoblanib, jamiyatdan chetlashtirilgan yoki hayotga noloyiq deb topilgan. Platon va Aristotel kabi faylasuflar esa insonlarni tafakkur darajasiga qarab tabaqalarga ajratganlar, lekin bu o’rinda aqli zaiflikni tibbiy yoki pedagogik muammo sifatida ko’rishgan. Diniy qarashlar kuchli bo’lgan aqli zaiflar “jin

urgan”yoki “lanatlangan”deb qaralgan.Ular ko’pincha ruhoniylar tomonidan davolanishga yuborilgan. Qadimda aqli zaif bolalarni ota-onasi qilgan gunohini deb tog’ni eng baland cho’qqisigdan tashlab yuborishgan,bu voqea menimcha barcha insonlarni dilini ranjitdi shunday emasmi.Axir ularni ham shunday davrlarda yashash huquqlari bor edi.XVI-XVIIIasrlarda inson ruhiyati shaxsiyat va tafakkuri bilan bog’liq ilmiy qiziqishlari ortdi.XIX asrga kelib asta-sekin aqli zaif bolalar uchun turli xil rivojlantiruvchi metodikalar qo’llanila boshlandi. Bu vaqtlarda maxsus maktablar,internatlar,reabilitatsiya markazlari ochila boshlandi va tibbiy nuqtai nazardan aqli zaiflikning sabablari o’rganila boshlandi.

Aqliy imkoniyati cheklangan bolalar statistikasi: Dunyoda har 100 boladan taxminan 1-3nafari aqli zaiflikning turli darajalariga ega bo’ladi.Bu ko’rsatgichlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ko’proq uchrashi mumkin,chunki tibbiy xizmatlar,tug’ruq sharoitlari va genetik skrining tizimi yetarli emas.Aqli zaiflikning sabablari orasida quyidagilar bor:

Genetik omillar-30-40%

Homiladorlik davridagi muamolar(infeksiyalar,streess,oziqatlanish)-20-30%

Tug’ruqdagi asoratlari-10-20%

Bola davridagi kasalliklar va travmalar-10-15%

Sabablari noma’lum-5-10%

Rasmiy va aniq yangilangan statistik ma’lumotlar har doim ommaviy e’lon qilinmasligi mumkin,ammo mavjud ochiq ma’lumotlar quyidagicha:

O’zbekistonda aqli zaif yoki psixofizik rivojlanishida og’ish bo’lgan bolalar soni taxminan 30-40ming atrofida (bu raqam yiliga o’zgarib turadi).

Maxsus ta’lim muassasalarida (korreksion maktablar,ixtisoslashgan internatlar)tahsil olayotgan bolalar soni:

10ming nafardan ortiq bola maxsus ehtiyojli bolalar uchun mo’ljallangan muassasalarda o’qiydi.

Qolganlari umumta’lim maktablaridagi inklyuziv ta’lim dasturlari orqali ta’lim olishmoqda.

Aqli zaiflik darajasi bo’yicha ajratilgan statistik ma’lumotlar ochiq manbalarda ko’p uchramaydi,ammo umumiy holatga ko’ra:

Yengil aqli zaiflik-70%

Og’ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik-10%

Aqli zaif (intellektual rivojlanishida cheklov bo’lgan)shaxslarning huquqlari-inson huquqlarining ajralmas qismidir.Ular ham boshqa fuqarolar kabi barcha asosiy huquq va erkinliklarga ega bo’lishi kerak.Quyida aqli zaif bolalar va kattalarning huquqlari to’g’risidagi asosiy tamoyillari va qonunchilikdagi kafolatlar keltirilgan:

1)Ta’lim olish huquqi:Har bir bola,shu jumladan aqli zaif bolalar ham,sifatli ta’lim olish huquqiga ega.

- Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim yoki korreksion moslashtirilgan ta'lim tizimlari mavjud.

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va BMTning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya bu huquqni kafolatlaydi.

2)**Sog'liqni saqlash huquqi:**Aqli zaif shaxslar sifatli tibbiy xizmat,psixologik va psixiatriya yordamini olish huquqiga ega.

- Reabilitatsiya,fizioterapiya va defiktologik yordam ularga bepul yoki imtiyozli tarzda ko'rsatilishi lozim.

3)**Ijtimoiy himoya va yordam huquqi:**Nogironlik darajasi bo'yicha ro'yxatga olingan shaxslar davlat tomonidan moddiy yordam,pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega.

- Ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari orqali kundalik hayotda yordam beriladi(masalan,transportda imtiyoz sog'lomlashtirish,uyda parvarish).

4)**Mehnat huquqi:**Yengil aqli zaiflik darajasiga ega shaxslar mehnat qilish,kasb o'rganish va ishga joylashish huquqiga ega.

- Ular uchun maxsus ishlab chiqarish sexlari,kasb-hunar kollejlari da moslashtirilgan dasturlar mavjud.

5)**Shaxsiy daxlsizlik va hurmat huquqi:**Aqli zaif odamlar ham har qanday kamsitish,tahqirlash yoki zo'ravonlikdan himoyalangan bo'lishi kerak.

- Ularning shaxsiy hayoti,qaror qabul qilish huquqi(vasiy yoki ishonchli shaxs orqali bo'lsa-da)hurmat qilishadi.

6)**Oilada yashash va parvarish huquqi:**Davlat imkon qadar aqli zaif bolalarni biologik oilada tarbiyalanishini qo'llab-quvvatlashin kerak.

- Agar buni imkoni bo'lmasa,ular mehribonlik uylari yoki oilaviy tarbiya muassasalarida parvarish qilinadi.

7)**Madaniy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish huquqi:**Ular sport,madaniy tadbirlar,jamiyat hayotida faol qatnashishlari uchun imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Huquqiy asoslar:Aqli zaif insonlarning huquqlari quyidagi xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar bilan kafolatlanadi:

1.BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya(2006)

2)BMT Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya(1989)

3)O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi.

4)"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risid"gi qonun

5)"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

6)"Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar va hukumat qarorlari.

Aqli zaiflik-bu bolaning intellektual rivojlanishi va kundalik hayotdagi ijtimoiy-ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan holatidir. Bu holat tug'ma yoki ortirilgan shikastlanishlar, asab tizimidagi buzilishlar yoki genetik omillar natijasida yuzaga keladi. Aqli zaiflik darajalari to'rt turga bo'linadi bular quyidagilar:

- 1)Yengil Daraja
- 2)O'rta Daraja
- 3)Og'ir Daraja

4)Chuqur Darajalarga bo'linadi. Yengil darajadagi bolalar oddiy maktab dasturlarini yengil soddalashtirilgan shaklda o'zlashtira oladilar, og'irroq darajadagilar esa maxsus ehtiyojli ta'limni talab qiladilar. Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashda individual yondashuv asosiy o'rin tutadi. Ularning har biri o'ziga xos rivojlanish sur'ati qiziqishlari va qobiliyatlariga ega. Shu sababli, ularga moslashtirilgan o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar, o'yin shaklidagi o'rgatish metodlari keng qo'llaniladi. Maxsus maktablar, korreksion markazlar va defektolog-pedagoglar bu jarayonda muhim ro'l o'ynaydi.

Tarbiya jarayonida esa bolalarning o'z-o'zini anglashiga, ijtimoiy muhitga moslasha olishiga, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim. Ota-onalar va pedagoglar birgalikda ish olib borib, bolaning rivojlanishiga faol hissa qo'shishlari lozim.

Maxsus ta'lim va ijtimoiy himoya tizimida ya'ni "G'amxo'rlik guruhi"

Maxsus ehtiyojli bolalarning (ayniqsa aqli zaif, autizm spektridagi yoki boshqa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning) kundalik parvarishi, o'qitilishi, rivojlanishi bilan shug'ullanuvchi kichik guruh. Bunday guruhlarda tarbiyachi, defektolog, logoped, psixolog, hamshira kabi mutaxassislar faoliyat yuritadi. Guruh a'zolari bolaning yoshiga, rivojlanish darajasiga va ehtiyojlariga qarab shakllantiriladi (masalan, 4-6 yoshdagi o'rtacha aqliy zaiflikdagi bolalar guruhi). Masalan: Maxsus bog'chalarda 5-8 nafar bola bitta g'amxo'rlik guruhi'da bo'lishi mumkin va ularga individual dasturlar asosida ta'lim beriladi.

G'amxo'rlik guruhlarining asosiy maqsadlari:

1)Parvarish va kundalik hayotga moslashishi: Bolaga o'zini yuvish, kiyinishi, ovqatlanishi va boshqa kundalik ehtiyojlarni mustaqil bajarishni o'rgatadi.

2)o'qitish va tarbiya: Har bir bolaning intellektual imkoniyatlariga mos maxsus dasturlar asosida o'rgatish.

3)Ijtimoiy moslashuv: Guruhda muloqot qilish, navbat kutish, boshqalarni tushunish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilishga o'rgatish.

Psixologik xususiyatlari: Aqli zaif bolalarning psixologik dunyosi juda nozik bo'ladi. Ular:

- Tanqidni qiyin qabul qiladi

- O'zini yomonroq his qiladi, o'ziga bo'lgan ishonch past bo'ladi
- Kichik g'alabalardan ham quvonadi
- Juda mehribon va samimiy bo'lishadi.
- Ko'pincha yolg'izlikdan aziyat chekadilar.

Shuning uchun ular bilan ishlashda muloyimlik, ijobiy munosabat va doimiy rag'bat zarur.

Ta'limda Inklyuziv Yondashuv

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Bu imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy maktablar va jamoalarga integratsiya qilish deganidir.

Inklyuziv ta'lim aqli zaif bolalarga:

- O'z tengdoshlari bilan muloqot qilish
- Jamiyatga moslashish
- O'zini foydali his qilish imkonini beradi

Biroq bu yondashuvda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar, mos darsliklar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi.

Oila va jamiyat ro'li

Aqli zaif bola ulg'ayishida oila birinchi va eng muhim tayanchdir. Ota-onalar:

- Bolaning imkoniyatlariga ishonsa
- Uni ortiqcha solishtirishdan tiyilsa
- Ko'p sabr qilsa
- Mutaxassislar bilan doimiy maslahatlashib borsa-bola jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Shuningdek, jamiyat ham bu bolalarga mehr, sabr va e'tibor bilan qarashi zarur. Ularni kamsitmaslik, masxara qilmaslik, aksincha, qo'llab-quvvatlash madaniyati rivojlanishi kerak.

Reabilitatsiya Markazlari: Maqsadi, Faoliyati va Ahamiyati

1) Reabilitatsiya Markazi nima?

Reabilitatsiya markazi - bu nogironligi yoki rivojlanishida cheklovlar bo'lgan shaxslarga (shu jumladan, aqli zaif bolalarga) jismoniy, psixologik, ijtimoiy va ta'limiy yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan muassasadir. Bu markazlarning asosiy vazifasi - nogiron yoki imkoniyati cheklangan shaxslarning mustaqil hayot kechirishiga yordam berish, ularni jamiyatga moslashtirish va rivojlantirishdir.

2) Asosiy maqsad va yo'nalishlar

Tibbiy reabilitatsiya - Sog'likni tiklash, davolash, fizioterapiya, dori-darmonlar.

Psixologik reabilitatsiya - Ruhan qo'llab-quvvatlash, stressni kamaytirish, o'ziga ishonchini oshirish.

Pedagogik reabilitatsiya-Maxsus ta'lim,o'qitish,logopedik yordam.

Ijtimoiy reabilitatsiya- Jamiyatga moslashuv,kundalik hayot ko'nikmalarini o'rgatish.

Madaniy va sport faoliyati-Musiq,rasm,teatr,sport bilan shug'ullanish orqali rivojlanish.

Xulosa:

Aqli zaif bolalar-jamiyatning mehr,sabr va chuqur insonparvarlikka asoslangan qatlami.Ular bilan ishlash yuksak mas'uliyat va bilim talab qiladi.Har bir bola,kim bo'lishidan qat'i nazar,quvonch,muhabbat va imkoniyatga loyiq. Aqli zaif bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun esa barchamiz birgalikda harakat qilishimiz zarur. Aqli zaif bolalar-bu yordamga,sabrga va to'g'ri yondashuvga muhtoj toifa. Ular bilan ishlash murakkab,ammo shu bilan birga juda mas'uliyati va ma'naviy jihatdan boyituvchi jarayondir. Jamiyat,ta'lim muassasalari va oilalar birgalikda harakat qilgan taqdirda,bunday bolalarning hayot sifati yaxshilanishi,mustaqil yashash imkoniyatlari kengayishi mumkin.

Aqli zaif bola-bu muamo emas,balki imkoniyat.To'g'ri yondashuv,sabr,ilmiy asoslangan ta'lim va jamiyat yordami orqali ularning hayotini mazmunli,baxtli va sermahsul qilish mumkin.Har bir bola muhabbatga loyiq-aqli zaif bolalar esa bu muhabbatga biroz ko'proq ehtiyoj sezadilar. Inklyuziv ta'lim-bu nafaqat ta'lim tizimidagi islohot,balki butun jamiyatning insonparvarlik,tenglik va adolatga bo'lgan munosabatining aksidir.Har bir bolaning o'rganishga haqli ekanini tan olish,u qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar,unga teng sharoit yaratish-bu inklyuzivlikning asosiy mohiyatidir. Bu tizim orqali imkoniyati cheklangan bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qish,rivojlanish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar.Inklyuziv ta'lim,aslida faqat nogiron bolalarga emas,butun o'quv muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda,inklyuziv ta'lim-bu farqli bolalarni ajratib emas,birlashib o'rgatishga undovchi tizimidir. Bu yo'l bilan biz nafaqat bilimli,balki insoniy fazilatlarga boy avlodni tarbiyalaymiz.

Reabilitatsiya markazlari-bu imkoniyati cheklangan bolalar hayotidagi eng muhim tayanch nuqtalardan biridir.Bu markazlar nafaqat davolaydi,balki Bolani tarbiyalaydi,o'qitadi,jamiyatga tayyorlaydi.Aqli zaif bolalarning to'laqonli yashashi uchun bunday muassasalarni rivojlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.minzdrav.uz
2. www.mehnat.uz
3. www.lex.uz
4. www.unicef.uz